

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA BIZNES JARAYONLARNI
BOSHQARISHNING MARKETING STRATEGIYASI****ZOKIROV ULUG‘BEK INOM O‘G‘LI****QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225-uy
70411201 - Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha 2-kurs Magistranti
+998914565666*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi kunda dunyoda ko‘plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga raqamli iqtisodiyot va ularni rivojlanish omillariga sezilarli darajada ta‘sir o‘tkazmoqda, shuningdek davlat iqtisodiyotida raqamli iqtisodiyotning o‘rni muhim hisoblanishi keltirilgan. “Raqamli iqtisodiyot nima?”, “Raqamli iqtisodiyot vazifalari va maqsadlari”, hamda “Raqamli iqtisodiyotni O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar va to‘siqlari” kelib chiqish omillari va ularning yeshimlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish usulari, bozor iqtisodiyoti, raqamli texnologiya, robototexnika, IT, raqamli dividendlar, YAİM.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье цифровая экономика и факторы ее развития оказывают существенное влияние на экономику многих развитых стран мира, а также подчеркивается значение роли цифровой экономики в экономике государств. Научно проанализированы темы «Что такое цифровая экономика?», «Задачи и цели цифровой экономики», «Факторы и препятствия, влияющие на цифровую экономику в Узбекистане» и пути их решения.

Ключевые слова: *Цифровая экономика, методы цифровизации, рыночная экономика, цифровые технологии, робототехника, ИТ, цифровые дивиденды, ВВП.*

ABSTARCT

This article emphasizes that the digital economy and its development factors have a significant impact on the economy of many developed countries of the world, as well as the importance of the role of the digital economy in the economy of countries. The topics "What is the digital economy?", "Tasks and goals of the digital economy", "Factors and obstacles affecting the digital economy in Uzbekistan" and ways to solve them were scientifically analyzed.

Keywords: *Digital economy, digitization methods, market economy, digital technologies, robotics, IT, digital dividends, GDP.*

KIRISH

Bashariyat iqtisodiyot tarmoqlari o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. 2022 yilga kelib dunyo YAIMning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada oydinlashadi.«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida tashqi migratsiya, xalqaro savdo va kapitallar harakati, turizm, xorijiy investitsiyalar, IT rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Bunga mamlakatimiz tashqi savdo hajmining o'sishini misol qilib keltirish mumkin. Xalqaro savdoga raqamlashtirishning ta'siri haqida manbalarda ilmiy maqolalarni topish judayam qiyin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi. Bugungi davrda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning sur'ati, ko'lami, qamrovi va chuqurligida misli ko'rilmagan texnologik o'zgarishlar odatda „to'rtinchi sanoat inqilobi“ degan umumiy atama bilan tavsiflanadi (inglizcha: the Fourth Industrial Revolution). Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirishga imkon beradigan suv va bug' energiyasiga, ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda jadal taraqqiyotni ta'minlagan elektr energiyasiga va elektronika hamda axborot texnologiyalariga asoslangan uchta sanoat inqilobidan farqli o'laroq, to'rtinchi sanoat inqilobi tizimli ta'sirga ega. U hayotning barcha sohalariga, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada, jamoatchilik bilan aloqalar tizimida sifatli o'zgarishlarga olib keldi. Shveysariyaning UBS banki mutaxassislarining fikriga ko'ra, iqtisodiy va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalari va yirik ma'lumot bazalarining paydo bo'lishi, Internet va blokcheyn, ilg'or robotlar va boshqalar tufayli har qanday ishlab chiqarishni tashkil etish samaradorligini ta'minlashning o'zaro bog'liqligi vujudga kelmoqda.

To'rtinchi sanoat inqilobi va uning insoniyat uchun qanday oqibatlarga olib kelishi to'g'risida eng zamonaviy g'oyalar Jahon iqtisodiy forumining (JIF) asoschisi va rahbari, professor Klaus Shvab tomonidan bayon etilgan bo'lib, ushbu hodisani „jismoniy, raqamli va biologik sohalar orasidagi chegaralarni yo'q qiladigan

texnologiyalarning birlashishi” deb ta’riflaydi. Ya’ni kelajak kiber-fizik ishlab chiqarish tizimlariga asoslanadi. Shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirish to’rtinchi sanoat inqilobining hal qiluvchi tarkibiy qismi bo’lib xizmat qiladi va ilg’or texnologik yechimlardan samarali foydalanish uchun misli ko’rilmagan imkoniyatlar yaratadi. 2018 yil yanvar oyida bo’lib o’tgan Jahon Iqtisodiy Forumi(JIF) sessiyasida taqdim etilgan ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish to’g’risidagi hisobotda McKinsey & Company global konsalting tarmog’ining mutaxassislari ishlab chiqarishni keskin o’zgartiradigan uchta asosiy texnologik megatrendlarni ko’rsatib o’tdilar: zamonaviy raqamli texnologiyalarning kombinatsiyasi orqali o’zaro bog’liq, shu jumladan Interneti hamda turli AT texnologiyalari; ishlab chiqarish jarayonlari va tizimlarini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda boshqarish, kompyuterda o’qitish, raqamli buxgalteriya va yirik ma’lumot bazalari, diagnostika xizmatlari; ilg’or robotlar, moslashuvchan mustaqil ishlab chiqarishning yangi turilarini vujudga kelishiga asos bo’luvchi 3D nashr etish, elektron-optik boshqaruv tizimlari va boshqalardan foydalangan holda yuqori mahsuldorlikka erishadigan avtomatlashtirishdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Akademik S. G’ulomov va boshqalar muallifligidagi “Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari” nomli o’quv qullanmada raqamli iqtisodiyotga quyidagicha ta’rif berilgan:- “raqamli iqtisodiyot(elektron) bu–axborot, jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishning o’ziga xos xususiyati bo’lgan iqtisodiyotdir. Bu axborot-kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibriddunyo barcha iqtisodiy faoliyat subyektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayoni obyektlari va subyektlarining to’laqonli o’zaro aloqa qilish imkoniyatini ta’minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli mavjud bo’lishi mumkin”. Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. Kam o’rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste’molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig’iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo’natishdan ko’ra kengroq imkoniyatlar bo’lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi. Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog’langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga

oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari Olimjon Umarov ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. YAIM 30 foizga oshadi Nufuzli xalqaro tashkilotlar olib borgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshiradi, shuning barobarida, xufyona iqtisodiyotga barham beradi, — deydi "Taraqqiyot strategiyasi" markazi ijrochi direktori Eldor TULYAKOV. — Xalqaro amaliyotga yuzlanadigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot elektron tijorat va xizmatlar sohasi bilan cheklanib qolmay, balki hayotning har bir jabhasiga, xususan, sog'liqni saqlash, fan-ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet-banking va boshqa sohalarga jadal kirib bormoqda va ularning har birida o'zining yuqori samaralarini bermoqda. Davlat o'z fuqarolari uchun elektron xizmatlar ko'rsatishi va elektron mahsulotlarni taklif etishi — bu raqamli iqtisodiyotning asosiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda ushbu sohani keng rivojlantirish korrupsiya illatiga barham beradi. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo'yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda "axborotlashgan jamiyat" muhitini yaratishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda mamlakatning rivojlanishi faqat mavjud tabiiy boyliklar yoki aholi soniga bog'liq bo'lmay qoldi, — deydi O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, iqtisod fanlari doktori Qalandar ABDURAHMONOV. — Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi — 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77 foizi — 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!" degan fikrni alohida keltirib o'tdi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan muommolar bosqichma-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi. Raqamli tengsizlik tengsizliklarning doirasi" bo'lib turgan bir paytda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv, dunyo bozorida o'z o'rniga ega bo'lish, iqtisodiy ravnaq topish, aholiga qulayliklar yaratishning asosiy shartidir. Quvonarlisi, bu mamlakatimizda asosiy kun tartibidagi masala. Raqamlashtirish borasida O'zbekiston dadil odimlar bilan ildamlamoqda. Raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blokcheyn (Blockchain) texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalarini yoki kriptovalyutalarni tushunish kerak emas. Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Deputat Nodir Jumayev bu boradagi mulohazalarini bayon etiladi. Xalqaro savdo uni tartibga solish va liberallashtirishni rivojlantirishning yangi bosqichi arafasida turibdi. Bu jarayon raqamli muhitda faoliyat ko'rsatish va raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy qoidalarni ishlab chiqishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юлдашева, С. А., & Бўриходжаева, М. С. (2022, September). Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 87-91).
2. Ходжаева, Н. А., Файзиев, Р. Х., & Буриходжаева, М. С. (2021). Современное состояние системы экологического мониторинга в Республике Узбекистан. *Viznes-Эксперт*, 4, 160.
3. Буриходжаева М.С. (2022). МЕТОДЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ. *Экономика и социум*, (12-1 (103)), 488-495.
4. Бўрихаджаева, М.С. (2023). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (1-2), 338-345.
5. M.S.Bo'rixadjayeva. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM MUASSASALARIDA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA TALABALARNI IMLIY FAOLYATGA YO'NALTIRISH . *PEDAGOGS Jurnal*, 28(1), 68–75. Retrieved from <http://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3107>